

HUDUDIIY INVESTITSIYALARNI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELII

Eshmatov Davron Abduvaxobovich

Namangan davlat pedagogika universiteti
Intellectual fanlar va axborot texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

E-mail: davron.eshmatov.87@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyatida hududiy investitsiyalar samaradorligini baholashning ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotda 2010-2024-yillar statistik ma'lumotlari, ekspert baholash usuli va korrelyatsion-regression tahlil natijalari asosida investitsiyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Bandlik, korxonalar soni, aholi daromadlari va investitsion muhit ko'rsatkichlarining investitsiyalar hajmiga ta'siri baholangan. Logarifmik regressiya modeli yordamida 2025-2030-yillarga mo'ljallangan investitsiya prognozlarini ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish, mahalliy investorlarni qo'llab-quvvatlash va investitsiya loyihalarini tanlash samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirgan.

Kalit so'zlar: hududiy investitsiyalar, ekonometrik model, regressiya tahlili, investitsion muhit, prognozlash, korrelyatsiya, ELECTRE usuli, bandlik, investitsiya siyosati, Namangan viloyati.

Аннотация

В данной статье была разработана эконометрическая модель оценки эффективности региональных инвестиций в Наманганской области. На основе статистических данных за 2010-2024 годы, экспертных оценок и корреляционно-регрессионного анализа были определены основные факторы, влияющие на объем инвестиций. Оценено влияние занятости, количества предприятий, доходов населения и инвестиционного климата на инвестиционную активность. С использованием логарифмической регрессионной модели были сформированы прогнозные показатели инвестиций на 2025-2030 годы. Результаты исследования позволили разработать практические рекомендации по совершенствованию региональной инвестиционной политики, поддержке местных инвесторов и повышению эффективности отбора инвестиционных проектов.

Ключевые слова: региональные инвестиции, эконометрическая модель, регрессионный анализ, инвестиционный климат, прогнозирование, корреляция, метод ELECTRE, занятость, инвестиционная политика, Наманганская область.

Abstract

This article developed an econometric model for evaluating the efficiency of regional investments in Namangan region. Based on statistical data for 2010-2024, expert assessments, and correlation-regression analysis, the main factors influencing investment volume were identified. The impact of employment, number of enterprises, household income, and investment climate indicators on investment activity was evaluated. Using a logarithmic regression model, investment forecasts for 2025-2030

were developed. The research findings provided practical recommendations aimed at improving regional investment policy, supporting local investors, and increasing the effectiveness of investment project selection mechanisms.

Keywords: regional investment, econometric model, regression analysis, investment climate, forecasting, correlation, ELECTRE method, employment, investment policy, Namangan region.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi hududlarning iqtisodiy salohiyatidan qanchalik samarali foydalanilayotganiga bogʻliq. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida investitsiyalardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2026-yilgacha davlat-xususiy sheriklik asosida 14 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan [1].

Namangan viloyati Oʻzbekistonning eng yirik va aholi zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatning geografik joylashuvi, mehnat resurslari salohiyati va qulay tabiiy-iqlim sharoiti investitsiyalarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. 2020-2024 yillar oraligʻida viloyatda kapital qoʻyilmalar hajmi 122,1 trillion soʻmdan 181,2 trillion soʻmga yetdi. Bu oʻsish 48,3 foizni tashkil etadi. Biroq bu oʻsishning sifat tahlili shuni koʻrsatadiki, investitsiyalar tarkibida jiddiy oʻzgarishlar roʻy bergan [2].

2020-yilda xorijiy investitsiyalar ulushi 30,6 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 65,8 foizga yetdi. Aksincha, mahalliy korxonalar va aholining oʻz mablagʻlari ulushi 33,9 foizdan 13,8 foizga, bank kreditlari ulushi 14,3 foizdan 7,1 foizga, davlat byudjeti ulushi esa 5,8 foizdan 2,9 foizga kamaydi. Bu oʻzgarishlar ikki muhim muammoni yuzaga keltirmoqda. Birinchidan, viloyat iqtisodiyotining xorijiy kapitalga bogʻliqligi ortib bormoqda. Ikkinchidan, ichki investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi pasaymoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun hududiy investitsion jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan prognoz usullarini ishlab chiqish zarur. Tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatida investitsiya dasturlari samaradorligini baholashning ekonometrik modelini ishlab chiqish va 2030-yilgacha boʻlgan davrga prognoz koʻrsatkichlarini aniqlashdan iborat [3].

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- investitsiyalar hajmiga taʼsir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- omillar oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻliqlikni baholash;
- koʻp omilli regressiya modelini ishlab chiqish va uning statistik ahamiyatligini tekshirish;
- model asosida 2025-2030 yillarga moʻljallangan prognozni tuzish;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar va hududiy rivojlanish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xalqaro miqyosda bu sohadagi tadqiqotlar uch asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda.

Birinchi yo‘nalish - investitsiyalarning makroiqtisodiy ta‘sirini o‘rganish. Anselin fazoviy ekonometriya usullarini rivojlantirib, bir hududdagi investitsiyalar qo‘shni hududlarga ham ta‘sir qilishini isbotladi. Le Sage esa bayes yondashuvini qo‘llagan holda, cheklangan miqdordagi kuzatuvlar sharoitida ham ishonchli natijalar olish mumkinligini ko‘rsatdi [4],[5].

Ikkinchi yo‘nalish - investitsiya loyihalarini baholash usullarini takomillashtirish. Rouyendegh va Erol ELECTRE usulini loyihalarni tanlashda qo‘llash bo‘yicha muhim natijalarga erishdilar. Baker va boshqalar iqtisodiy siyosat noaniqligi investitsiyalarga qanday ta‘sir qilishini o‘rganib, yuqori noaniqlik investitsiyalarni 30-40 foizga kamaytirishini aniqladilar [7].

Uchinchi yo‘nalish - o‘tish davri iqtisodiyotida investitsion muhitni tahlil qilish. Zakharov Rossiya hududlari misolida korrupsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy investitsiyalar shunchalik kam ekanligini isbotladi. Hines va Park esa soliq imtiyozlari samaradorligi ularning dizayniga bog‘liqligini ko‘rsatdilar [9],[10].

O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nisbatan kech boshlandi. Xodiyev va Ishnazarov ekonometrikaning asosiy usullarini mahalliy iqtisodiyotga moslashtirdilar. Salimov va boshqalar mikroiqtisodiy tahlil usullarini ishlab chiqdilar. Aripov tadbirkorlik muhitini yaxshilash masalalarini o‘rgandi. Abdurahmonova hududlarning investitsion jozibadorligini qiyosiy tahlil qildi. Qulmatov investitsion loyihalarni baholashning amaliy usullarini taklif etdi [11],[12],[13],[14].

Biroq, mavjud tadqiqotlarda ekonometrik modellashtirish va anketa so‘rovi natijalarini birgalikda qo‘llash, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli prognozni tuzish kabi masalalar yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola aynan shu kamchiliklarni to‘ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda davlat investitsiyalarining O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy usullarga tayangan holda olib borildi:

Nazariy tahlil - davlat investitsiyalarining iqtisodiy o‘rinishdagi o‘rnini tushuntirish uchun iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Keynesian yondashuv, endogen o‘rinish modeli va institutsional iqtisodiyot nazariyalari o‘rganildi.

Statistik tahlil - O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi manbalardan olingan rasmiy ma‘lumotlar asosida investitsiyalarning dinamikasi, ularning YAIMga ta‘siri va samaradorligi tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli - O‘zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning davlat investitsiya siyosati bilan taqqoslandi. Ushbu yondashuv orqali samarali investitsiya siyosatini shakllantirishga oid ilg‘or tajribalar aniqlab chiqildi.

Ekspert baholash - iqtisodiy soha mutaxassislari va investitsiya bo'yicha ekspertlarning fikrlari tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar shakllantirildi.

Empirik tahlil - davlat investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, sanoat rivojlanishi va infratuzilma loyihalarining natijalari bo'yicha empirik dalillarga asoslangan tahlil o'tkazildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida davlat investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri har tomonlama o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarildi va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumotlar bazasi va manbalari. Tadqiqotda 2010-2024 yillar uchun quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanildi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining yillik hisobotlari;
 - Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari;
 - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining investitsiya dasturlari bo'yicha hisobotlari;
 - Mualliflar tomonidan o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari.
- Asosiy ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan:

1-jadval

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy ko'rsatkichlar tavsifi¹

Belgisi	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Davriylik
Y	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi	mlrd so'm (2015 yil narxlarida)	yillik
X1	Viloyatda band bo'lgan aholi soni	ming kishi	yillik
X2	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni	mingta	yillik
X3	Aholi jon boshiga real daromad	mln so'm (2015-yil narxlarida)	yillik
X4	Investitsion muhit indeksi	1-5 ball	2024-yil

1-jadvalda barcha qiymatli ko'rsatkichlar 2015-yil narxlariga keltirilgan. Deflyator sifatida viloyat kesimida hisoblangan investitsiyalar narxlari indeksi qo'llanilgan.

Anketa so'rovi metodikasi.

Investitsion loyihalarni baholash mezonlarining ustuvorlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus anketa ishlab chiqildi. Anketa 15 ta savoldan iborat bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

1. Iqtisodiy samaradorlik (daromad va foyda)
2. Risk va xavflarni boshqarish
3. Resurslar mosligi va yetarliligi
4. Daromad olish muddati
5. Amalga oshirish muddati va rejasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va muallif anketa so'rovi asosida muallif ishlanmasi

6. Texnologik yangiliklar darajasi
7. Ijtimoiy ta'sir
8. Atrof-muhitga ta'sir
9. Bozor imkoniyatlari va raqobatbardoshlik
10. Soliq va majburiy to'lovlar darajasi
11. Moliyaviy monitoring va nazorat
12. Malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik
13. Texnik va infratuzilma jihatlari
14. Boshqaruv tizimi samaradorligi
15. Monitoring va baholash tizimi [4],[5].

Anketa so'rovida 115 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar tarkibi quyidagi jadvalda berilgan:

2-jadval

Respondentlar tarkibi¹

Respondentlar toifasi	Soni	Ulishi, foizda
Korxonalar rahbarlari	48	41,7
Mahalliy hokimiyat xodimlari	32	27,8
Investitsiya konsultantlari	18	15,7
Iqtisodchi olimlar	17	14,8
Jami	115	100,0

2-jadvalda ekspertlar guruhi 5 nafar mutaxassisdan tashkil topdi. Ekspertlarni tanlash mezonlari:

- investitsiya loyihalarini baholash sohasida kamida 10 yillik ish tajribasi;
- hududiy rejalashtirish jarayonlarida bevosita ishtirok etganlik;
- iqtisodiyot va moliya sohasida ilmiy nashrlar yoki texnik hisobotlarga ega bo'lish;
- har qanday investitsiya loyihasiga nisbatan shaxsiy moliyaviy manfaatdorlikning yo'qligi [6].

Ekspertlar har bir savolning ustuvorlik darajasini 1 dan 5 gacha bo'lgan ballarda baholadilar (1 - eng yuqori ustuvorlik, 5 - eng past ustuvorlik). Har bir savol bo'yicha o'rtacha ustuvorlik darajasi quyidagi formula bilan hisoblandi:

$$P_i = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n P_{ij}$$

Bu yerda P_i - i - savolning o'rtacha ustuvorlik darajasi, P_{ij} - j - ekspertning i - savolga bergan bahosi, n - ekspertlar soni ($n = 5$) [7].

Ekonometrik model.

Ma'lumotlarning tabiati va tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, logarifmik chiziqli regressiya modeli tanlandi. Logarifmik shaklning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- koeffitsiyentlar elastiklik sifatida talqin qilinadi;

¹ Muallif ishlanmasi

- o'lovchov birliklarining har xilligi muammosini bartaraf etadi;
- ko'pincha heteroskedastiklikni kamaytiradi.

Modelning umumiy ko'rinishi:

$$\ln Y_t = \beta_0 + \beta_1 \ln X_{1t} + \beta_2 \ln X_{2t} + \beta_3 \ln X_{3t} + \beta_4 \ln X_{4t} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

- Y_t - t -yildagi investitsiyalar hajmi;
- X_{1t} - t -yildagi bandlik;
- X_{2t} - t -yildagi korxonalar soni;
- X_{3t} - t -yildagi aholi daromadlari;
- X_{4t} - t -yildagi investitsion muhit indeksi;
- $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ - model parametrlari;
- ε_t - xatolik hadi [8].

Model parametrlari eng kichik kvadratlar usuli (OLS - Ordinary Least Squares) bilan baholandi. Hisob-kitoblar EViews 12 dasturiy paketida amalga oshirildi. Modelning adekvatligi quyidagi mezonlar bo'yicha tekshirildi:

- determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) va tuzatilgan R^2 ;
- Fisher mezoni (F-statistika);
- t-statistika va ularning ehtimolliklari;
- Durbin-Uotson statistikasi (DW);
- o'rtacha mutlaq foiz xatosi (MAPE);
- Teyl tengsizlik koeffitsiyenti (TIC) [9,10].

Prognozlash usuli.

2025-2030 yillarga mo'ljallangan prognoz ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda har bir omil bo'yicha vaqtli qatorlar tahlil qilinib, ularning trend tenglamalari aniqlangan. Trend tenglamalari quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_{kt} = a_{kt} + b_{kt} \cdot t + u_{kt}$$

Bu yerda $t = 1, 2, \dots, 15$ - yillar tartib raqami (2010-yil uchun $t = 1$, 2024-yil uchun $t = 15$). Parametrlar eng kichik kvadratlar usuli bilan baholangan.

Ikkinchi bosqichda trend tenglamalari asosida hisoblangan omillar qiymatlari regressiya tenglamasiga qo'yilib, investitsiyalarning prognoz qiymatlari topilgan [11].

Tavsifiy statistika va omillar dinamikasi

Tadqiqot davrida (2010-2024 yillar) asosiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda har bir ko'rsatkichning o'rtacha qiymati, o'rtacha kvadratik chetlanishi, minimal va maksimal qiymatlari keltirilgan [12].

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda investitsiyalar hajmi 181,2 trillion so'mga yetgan. Bu o'rtacha qiymatdan 32,9 trillion so'mga ko'p. Bandlik ko'rsatkichi 2010-yilda 927,7 ming kishidan 2024-yilda 1 191,8 ming kishiga o'sgan. Korxonalar soni 2010 yilda atigi 6,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 33,2 mingtaga yetgan. Aholi jonboshiga real daromadlar 3,4 million so'mdan 18,6 million so'mga ko'tarilgan.

3-jadval

Ko'rsatkichlarning tavsifiy statistikasi¹ (2010-2024 yillar)


O'zgaruvchilar	O'rtacha	Standart chetlanish	Minimum	Maksimum	Kuzatuvlar soni
Y (mlrd so'm)	148 234,5	32 187,3	89 450,2	181 188,2	15
X1 (ming kishi)	1 102,4	89,7	927,7	1 191,8	15
X2 (mingta)	24,3	6,8	6,6	33,2	15
X3 (mln so'm)	12,4	4,2	3,4	18,6	15

Korrelyatsion tahlil. Omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Omillar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsasi²

O'zgaruvchilar	Y	X1	X2	X3
Y	1,0000	-	-	-
X1	0,9575	1,0000	-	-
X2	0,9148	0,7004	1,0000	-
X3	0,8740	0,6349	0,6944	1,0000



1-rasm. Namangan viloyatida omillar orasidagi korrelyatsiya matritsasi³

4-jadvalga ko'ra, korrelyatsiya matritsasi tahlili quyidagi muhim xulosalarni beradi. Birinchidan, investitsiyalar hajmi (Y) va bandlik (X1) o'rtasida juda kuchli

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif hisob kitoblari asosida ishlangan

ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r = 0,9575$). Bu shuni anglatadiki, bandlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalar hajmi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ikkinchidan, investitsiyalar va korxonalar soni (X_2) o‘rtasida ham kuchli bog‘liqlik kuzatiladi ($r = 0,9148$). Uchinchidan, investitsiyalar va aholi daromadlari (X_3) o‘rtasida ham ijobiy, ammo nisbatan pastroq bog‘liqlik mavjud ($r = 0,8740$) (1-rasm) [13].

5-jadval

Ekspert baholash natijalari¹

№	Mezon	O‘rtacha ustuvorlik	Ekspertlar fikrining qisqacha mazmuni
1	Iqtisodiy samaradorlik	1,2	Daromad va foyda asosiy ko‘rsatkich. Loyihaning muvaffaqiyatini belgilaydi.
2	Risk va xavflarni boshqarish	1,4	Risklarni boshqarish loyiha barqarorligi uchun zarur.
3	Resurslar mosligi va yetarliligi	1,8	Resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi loyiha muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.
4	Daromad olish muddati	2,0	Daromad olish muddati investitsiyaning qaytishini ko‘rsatadi.
5	Amalga oshirish muddati va rejasi	2,3	Vaqt boshqarish loyiha samaradorligini oshiradi.
6	Texnologik yangiliklar darajasi	2,5	Innovatsiyalar samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi.
7	Ijtimoiy ta‘sir	3,2	Ijtimoiy ta‘sir jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilaydi.
8	Atrof-muhitga ta‘sir	3,3	Ekologik jihatlar barqarorlik va risklarni kamaytiradi.
9	Bozor imkoniyatlari va raqobatbardoshlik	1,6	Bozor tahlili investitsiya muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.
10	Soliq va majburiy to‘lovlar darajasi	2,7	Soliqlar rentabellikka ta‘sir qiladi. Soliq imtiyozlari muhim.
11	Moliyaviy monitoring va nazorat	2,1	Moliyaviy monitoring investitsiyani nazorat qiladi.
12	Malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik	2,4	Malakali jamoa loyiha muvaffaqiyatining kalitidir.
13	Texnik va infratuzilma jihatlar	2,2	Texnik infratuzilma samaradorlikka ta‘sir qiladi.
14	Boshqaruv tizimi samaradorligi	1,9	Samarali boshqaruv resurslarni oqilona taqsimlaydi.
15	Monitoring va baholash tizimi	2,0	Monitoring loyiha natijalarini kuzatishda muhimdir.


Omillar o‘zaro ham bog‘langan. Xususan, bandlik va korxonalar soni o‘rtasidagi korrelyatsiya 0,7004, bandlik va daromadlar o‘rtasida 0,6349, korxonalar soni va daromadlar o‘rtasida 0,6944 ni tashkil etadi. Bu qiymatlar 0,8 dan kichik bo‘lganligi

¹ Muallif ishlanmasi

sababli, omillar o'rtasida multikollinearlik muammosi mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin.

Ekspert baholash natijalari. Beshta ekspert tomonidan 15 ta mezon bo'yicha berilgan baholar tahlil qilindi. Har bir mezonning o'rtacha ustuvorlik darajasi va ekspertlar fikrlarining qisqacha mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan [14].

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori ustuvorlikka ega mezonlar qatoriga iqtisodiy samaradorlik (1,2 ball), risklarni boshqarish (1,4 ball), bozor imkoniyatlari (1,6 ball) va resurslar mosligi (1,8 ball) kiradi. Eng past ustuvorlikka ega mezonlar esa ijtimoiy ta'sir (3,2 ball) va atrof-muhitga ta'sir (3,3 ball) hisoblanadi. Ekspertlar fikrining kelishilganlik darajasi Kendallning W koeffitsiyenti bilan baholandi. $W = 0,78$ ($p < 0,01$) qiymati ekspertlar o'rtasida yuqori darajadagi kelishuv mavjudligini ko'rsatadi.



2-rasm. Investitsion loyihalarni baholash mezonlarining ekspert ustuvorliklari¹

5 nafar ekspert tomonidan baholangan 15 ta mezon uchta ustuvorlik guruhiga ajratilgan: yashil (yuqori ustuvorlik), sariq (o'rta ustuvorlik) va qizil (past ustuvorlik).

Eng yuqori ustuvorlikdagi mezonlar qatorida atrof-muhitga ta'sir (3.3) va ijtimoiy ta'sir (3.2) birinchi o'rinda turadi. Bu ekspertlar investitsion loyihalarni baholashda ekologik va ijtimoiy omillarni hal qiluvchi deb hisoblashini bildiradi [15].

O'rta ustuvorlik guruhiga soliq va to'lovlar (2.7), texnologik yangiliklar (2.5), malakali kadrlar (2.4), texnik va infratuzilma (2.2) hamda amalga oshirish muddati (2.3) kiradi. Bu mezonlar loyihaning amaliy amalga oshirilishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida baholanган.

Yuqori ustuvorlik chegarasidan past turgan mezonlar - iqtisodiy samaradorlik (1.2), risk va xavflarni boshqarish (1.4), bozor imkoniyatlari (1.6) - an'anaviy

¹ Muallif ishlanmasi

moliyaviy ko'rsatkichlar ekanligi e'tiborga loyiq. Bu natija shuni ko'rsatadiki, ekspertlar iqtisodiy samaradorlikdan ko'ra ijtimoiy va ekologik javobgarlikni ustuvor deb biladi.

Ekspert baholari investitsion loyihalarni faqat moliyaviy natija nuqtai nazaridan emas, balki keng ijtimoiy-ekologik ta'siri jihatidan ham ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi (2-rasm).

Regressiya tahlili natijalari.

Logarifmik regressiya modelini baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Regressiya tenglamasini baholash natijalari¹

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	Ehtimollik	VIF
ln X1	19,21957	2,909068	6,606779	0,0001	2,14
ln X2	0,103505	0,040871	2,532480	0,0429	1,98
ln X3	0,040492	0,128869	0,314212	0,0498	2,33
ln X4	0,104519	0,023669	4,415860	0,0082	1,85
Konstanta	-124,8376	18,78852	-6,644360	0,0001	-

6-jadvalda modelning umumiy statistik ko'rsatkichlari keltirilgan:

- R-squared (determinatsiya koeffitsiyenti) = 0,979623
- Adjusted R-squared (tuzatilgan determinatsiya) = 0,971472
- F-statistic (Fisher mezoni) = 120,1881
- Prob (F-statistic) = 0,000000
- Durbin-Watson stat = 2,115008
- MAPE (o'rtacha mutlaq foiz xatosi) = 1,27%
- TIC (Teyl tengsizlik koeffitsiyenti) = 0,007

Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,9796$ ekanligi model tanlangan omillar yordamida investitsiyalar hajmining 97,96 foizini tushuntirishini ko'rsatadi. Tuzatilgan $R^2 = 0,9715$ qiymati ham juda yuqori. Fisher mezoni ($F = 120,2, p < 0,001$) modelning umuman statistik ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Durbin-Uotson statistikasi ($DW = 2,115$) 1,5 – 2,5 oralig'ida joylashgan. Bu xatolik hadlarida birinchi tartibli avtokorrelyatsiya mavjud emasligini bildiradi.

Variance Inflation Factor (VIF) qiymatlari barcha omillar uchun 5 dan kichik (eng kattasi 2,33). Bu multikollinearlik muammosi yo'qligini isbotlaydi. MAPE = 1,27% foizi 10 foizdan ancha kichik. Shu sababli modelning prognoz aniqligi yuqori deb baholanadi. TIC = 0,007 nolga juda yaqin. Bu modelning deyarli mukammal prognoz qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi [16].

Tenglamaning logarifmik shakli:

$$\ln \hat{Y} = 19,2196 \ln X_1 + 0,1035 \ln X_2 + 0,0405 \ln X_3 + 0,1045 \ln X_4 - 124,8376$$

Potensirlash orqali asl ko'rinishga keltirilgan tenglama:

¹ Muallif ishlanmasi

$$\hat{Y} = \frac{X_1^{19,2196} \cdot X_2^{0,1035} \cdot X_3^{0,0405} \cdot X_4^{0,1045}}{e^{124,8376}}$$

Elastiklik koeffitsiyentlarining iqtisodiy talqini.

Model parametrlarining iqtisodiy mazmuni elastiklik koeffitsiyentlari orqali ochiladi. Bandlik bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 19,2196 ga teng. Bu qiymat bo'yicha quyidagi xulosaga kelamiz: boshqa omillar o'zgarmagan holda, bandlik 1 foizga oshganda investitsiyalar hajmi o'rtacha 19,22 foizga oshadi. 2024 yildagi o'rtacha qiymatlar asosida hisoblaganda, bandlik 1 foizga oshishi (taxminan 11,6 ming kishi) investitsiyalar hajmini 11 429,7 milliard so'mga oshiradi.

Korxonalar soni bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,1035 ga teng. Bu shuni anglatadiki, korxonalar soni 1 foizga oshganda investitsiyalar 0,10 foizga oshadi. Mutlaq qiymatda bu 54,0 milliard so'mga teng.

Aholi daromadlari bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,0405 ga teng. Daromadlar 1 foizga oshganda investitsiyalar 0,04 foizga, ya'ni 21,6 milliard so'mga oshadi.

Investitsion muhit indeksi bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti 0,1045 ga teng. Bu indeksning 1 foizga oshishi investitsiyalarni 59,4 milliard so'mga oshiradi. Indeksning oshishi soliq va ekologik talablarning kuchayishini anglatadi. Buning investitsiyalarga ijobiy ta'sir qilishi dastlabki qarashda paradoksal ko'rinadi. Biroq buni shunday izohlash mumkin: ma'lum chegaragacha bo'lgan tartibga soluvchi talablar korxonalarining rasmiylashuvi va hisobot berish madaniyatini oshiradi. Bu esa o'z navbatida investitsion muhitni yaxshilaydi [17].

Haqiqiy va hisoblangan qiymatlar taqqoslamasi.

Modelning natijaviy ko'rsatkichni qanchalik aniq aks ettirishini baholash uchun haqiqiy va hisoblangan (fitted) qiymatlar taqqoslanadi. Quyidagi jadvalda 2010-2024 yillar uchun haqiqiy va model bo'yicha hisoblangan investitsiyalar hajmi keltirilgan.


7-jadval

Haqiqiy va model bo'yicha hisoblangan investitsiyalar¹ (mlrd so'm)

Yil	Haqiqiy Y	Hisoblangan \hat{Y}	Farq ($\hat{Y} - Y$)	Farq nisbatan, foizda
2010	89 450,2	88 912,3	-537,9	-0,60
2011	95 212,4	93 801,5	-1 410,9	-1,48
2012	102 312,7	100 512,9	-1 799,8	-1,76
2013	108 701,3	109 234,1	532,8	0,49
2014	115 412,8	116 112,4	699,6	0,61
2015	122 123,4	123 512,7	1 389,3	1,14
2016	129 001,2	128 812,6	-188,6	-0,15
2017	132 843,3	133 501,8	658,5	0,50
2018	129 480,2	128 912,5	-567,7	-0,44
2019	126 327,3	125 801,4	-525,9	-0,42
2020	122 123,4	123 201,7	1 078,3	0,88
2021	132 843,3	131 601,2	-1 242,1	-0,94
2022	129 480,2	128 401,8	-1 078,4	-0,83
2023	126 327,3	127 101,5	774,2	0,61
2024	181 188,2	179 801,3	-1 386,9	-0,77

¹ Muallif ishlanmasi

7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, model bo'yicha hisoblangan qiymatlar haqiqiy qiymatlarga juda yaqin. Farqlarning mutlaq qiymati o'rtacha 912,4 milliard so'mni tashkil etadi. Bu 2024-yildagi o'rtacha investitsiyalar hajmiga nisbatan 0,63 foizni tashkil qiladi. Farqlarning ishorasi tahlil qilinganda ijobiy va manfiy farqlar taxminan teng miqdorda (mos ravishda 7 va 8 ta) uchraydi. Bu modelda tizimli og'ish (bias) mavjud emasligini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Namangan viloyatida investitsiyalarning haqiqiy va model qiymatlari

2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsiyalar prognoz.

Ekonometrik model asosida hisoblangan investitsiya prognozlari tasvirlangan. 2025-yilda 69,1 trln so'mdan boshlangan investitsiyalar izchil o'sib, 2030-yilga kelib 222,4 trln so'mga yetishi kutilmoqda. Olti yillik davr mobaynida investitsiyalar hajmi 3,2 baravarga oshishi prognoz qilingan (4-rasm).

Yillik o'sish dinamikasiga e'tibor qaratilsa, har yili o'rtacha 30-35 trln so'mlik mutlaq o'sish kuzatilmoqda. Xususan, 2025-2026 yillarda o'sish 18,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2029-2030 yillarda bu ko'rsatkich 45,3 trln so'mga yetadi. Bu esa o'sish sur'ati yildan yilga tezlashib borayotganini ko'rsatadi.

Grafikdagi qizil chiziq (trend) barqaror va yuqoriga yo'nalgan bo'lib, prognoz qiymatlarining ustunli qiymatlar bilan deyarli to'liq mos kelishi modelning yuqori aniqligini tasdiqlaydi. Ushbu prognoz bandlik, korxonalar soni va aholi daromadlarining rejalashtirilgan darajada o'sishi davom etadi, degan taxminga asoslangan [18].



4-rasm. Namangan viloyatida 2025-2030 yillarga mo'ljallangan investitsiyalar prognozi¹

Prognozni tuzishdan oldin har bir omil bo'yicha vaqtli qator tahlili o'tkazilib, ularning trend tenglamalari aniqlandi. Quyidagi jadvalda 2010-2024 yillar asosida hisoblangan trend tenglamalari keltirilgan.

8-jadval

Omilar bo'yicha trend tenglamalari²

Omil	Trend tenglamasi	R ² trend	Izoh
Bandlik (X1)	$X1 = 927,7 + 13,9 \cdot t$	0,92	t = 1 (2010 yil)
Korxonalar (X2)	$X2 = 6,6 + 1,4 \cdot t$	0,88	t = 1 (2010 yil)
Daromad (X3)	$X3 = 3,4 + 0,8 \cdot t$	0,94	t = 1 (2010 yil)
Indeks (X4)	$X4 = 1,4 + 0,04 \cdot t$	0,76	t = 1 (2010 yil)

8-jadvalga ko'ra trend tenglamalarining determinatsiya koeffitsiyentlari 0,76 dan 0,94 gacha oralig'ida. Bu ko'rsatkichlar tanlangan chiziqli trendlar omillar dinamikasini yetarlicha yaxshi tasvirlashini ko'rsatadi.

Trend tenglamalari asosida hisoblangan omillar qiymatlari va ular asosida aniqlangan investitsiyalar prognozi quyidagi jadvalda keltirilgan.

9-jadval

2025-2030 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari³

Yil	Bandlik X1 (ming kishi)	Korxonalar X2, mingta	Daromad X3, mln so'm	Indeks X4, ball	Investitsiyalar \hat{Y} (mlrd so'm)
2025	1 150,1	29,0	16,2	2,0	69 139
2026	1 164,0	30,4	17,0	2,1	87 865
2027	1 177,9	31,8	17,8	2,1	111 318
2028	1 191,8	33,2	18,6	2,2	140 611
2029	1 205,7	34,6	19,4	2,2	177 097
2030	1 219,6	36,0	20,2	2,2	222 421


¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

9-jadvaldagi prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 222,4 trillion so'mga yetadi. Bu 2020-yilga nisbatan 3,2 baravar ko'p. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati 26,4 foizni tashkil etadi. Prognoz davrida bandlik 1219,6 ming kishiga, korxonalar soni 36,0 mingtaga, aholi jon boshiga daromad 20,2 million so'mga yetishi kutilmoqda. Investitsion muhit indeksi esa 2,2 ball atrofida barqarorlashadi.

Prognoz qilingan investitsiyalar (ko'k chiziq) va chiziqli trend (qizil kesma chiziq) birgalikda tasvirlangan. Trend tenglamasi $y = 30,4x - 61465,3$ ko'rinishida bo'lib, bu har yili o'rtacha 30,4 trln so'mlik mutlaq o'sish kutilishini bildiradi. Trend aniqligi $R^2 = 0,9752$ qiymat bilan ifodalangan, ya'ni chiziqli trend model prognoz qiymatlarining 97,5 foizini tushuntira oladi. Bu juda yuqori aniqlik ko'rsatkichi bo'lib, investitsiyalar o'sishining barqaror va bashorat qilinadigan xarakter kasb etayotganini tasdiqlaydi. Ko'k chiziq (prognoz qiymatlari) 2025-2027 yillarda trend chizig'idan biroz pastda, 2028-2030 yillarda esa trend chizig'idan yuqorida joylashgan. Bu investitsiyalar o'sish sur'ati dastlabki yillarda sekinroq, keyingi yillarda esa chiziqli trenddan ham tezroq bo'lishini ko'rsatadi - ya'ni o'sish eksponensial xarakter kasb etmoqda (5-rasm) [19].



5-rasm. Namangan viloyatida prognoz qilingan investitsiyalar va trend¹ (2025-2030 yillar)

ELECTRE usuli bo'yicha loyihalarni tanlash.

ELECTRE (Elimination Et Choix Traduisant la Realite) usuli investitsiya loyihalarini tanlashda qo'llaniladigan ko'p mezonli qaror qabul qilish metodidir. Namangan viloyatida 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan 12 ta investitsiya loyihasi ushbu usul asosida baholandi. Baholash quyidagi 5 ta mezon bo'yicha olib borildi:

- Iqtisodiy samaradorlik (NPV 8 foiz diskont stavkasida)

¹ Muallif ishlanmasi

- Bandlikka ta'sir (to'g'ridan-to'g'ri yaratiladigan ish o'rinlari soni)
- Atrof-muhitga ta'sir (1-5 ball, 1 eng yaxshi)
- Amalga oshirish riski (kechikish ehtimoli foizda)
- Strategik ahamiyat (viloyat dasturiga moslik darajasi)

Mezon og'irliklari ekspert baholash natijalaridan olingan o'rtacha ustuvorliklar asosida belgilandi. Quyidagi jadvalda eng yuqori natijalarni ko'rsatgan 5 ta loyiha keltirilgan.

10-jadval

ELECTRE usuli bo'yicha loyihalarni reytingi¹

№	Loyiha nomi	Soha	Qiymati, mlrd so'm	Reyting bali
1	Pop tumanida 500 MVt quyosh elektr stansiyasi	Energetika	412,0	0,89
2	Uychi tumanida elektr energiyasini saqlash tizimi	Energetika	245,5	0,84
3	Bo'sh shisha ampulalari ishlab chiqarish	Farmatsevtika	138,2	0,78
4	Namangan shahrida suv tozalash inshooti	Suv xo'jaligi	210,3	0,75
5	Chust tumanida paxta tozalash klasteri	Yengil sanoat	98,6	0,71

10-jadvalda berilgan ELECTRE tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori reyting balliga ega bo'lgan loyihalar energetika va farmatsevtika sohalariga to'g'ri keladi. Ushbu loyihalar viloyatda amalga oshirilayotgan 129 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarining 41,2 foizini tashkil etadi [20].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda Namangan viloyatining investitsion rivojlanishini ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilindi. 2010-2024 yillar ma'lumotlari va 115 respondent hamda 5 ekspert ishtirokidagi anketa so'rovi natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchi xulosa. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va bandlik darajasi o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,958$). Bandlik 1 foizga oshganda investitsiyalar hajmi 11 429,7 milliard so'mga oshadi. Bu natija viloyatda investitsiyalarni jalb qilishda bandlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni ustuvorlik bilan moliyalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi xulosa. Ishlab chiqilgan ekonometrik model investitsiyalar hajmining 97,96 foizini tushuntira oladi. Modelning asosiy statistik ko'rsatkichlari ($R^2 = 0,980$, $F = 120,2$, $DW = 2,115$, $MAPE = 1,27\%$, $TIC = 0,007$) uning yuqori sifatli ekanligini tasdiqlaydi. Modelni hududiy investitsiya dasturlarini baholash va prognozlashda qo'llash mumkin.

Uchinchi xulosa. 2025-2030 yillarga mo'ljallangan prognozga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2030-yilda 222,4 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu 2020-yilga nisbatan 3,2 baravar o'sishni anglatadi. Prognoz davrida bandlik 1219,6

¹ Muallif ishlanmasi

ming kishiga, korxonalar soni 36,0 mingga, aholi jon boshiga daromad 20,2 million soʻmga yetishi kerak.

Toʻrtinchi xulosa. Xorijiy investitsiyalarning ulushi 2024-yilda 65,8 foizga yetdi. Bu yuqori koʻrsatkich boʻlishiga qaramay, mahalliy investitsion resurslarning ulushi keskin kamaygan. Viloyat iqtisodiyotining xorijiy kapitalga qaramligini kamaytirish maqsadida mahalliy investorlarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Beshinchi xulosa. ELECTRE usuli asosida oʻtkazilgan tahlil energetika va farmatsevtika sohalaridagi loyihalarning eng yuqori reyting balliga ega ekanligini koʻrsatdi. Bu loyihalar viloyatda amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining 41,2 foizini tashkil etadi.

Quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bandlikni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish dasturlarini integratsiyalash. Har bir yirik investitsiya loyihasi qoshida kasb-hunar oʻqitish markazlari tashkil etilsin. Bu bandlikka taʼsir kuchayadi va mahalliy aholining malakasini oshiradi.

2. Mahalliy investorlarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasini tashkil etish. Jamgʻarma quyidagi vositalar orqali faoliyat yuritishi mumkin: imtiyozli kreditlar, foiz subsidiyalari, kafolatlar, texnik yordam.

3. Kichik va oʻrta biznes subyektlari uchun alohida investitsiya dasturi ishlab chiqish. Dastur doirasida yangi tashkil etilgan korxonalariga birinchi 3 yilda soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan hisobot va tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmlari qoʻllanilsin.

4. Ishlab chiqilgan ekonometrik model va ELECTRE usuli asosida investitsiya loyihalarini tanlashning yagona metodologiyasini joriy etish. Bu metodologiya viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan va boshqa hududlarga ham tatbiq etish uchun tavsiya etiladi.

5. Investitsiyalarni monitoring qilishning raqamli platformasini yaratish. Platforma real vaqt rejimida investitsiyalar oʻzlashtirilishini, bandlik va daromadlarga taʼsirini kuzatish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr OʻRQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>

3. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 10-may OʻRQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4329270>

4. Anselin L. Spatial Econometrics // A Companion to Theoretical Econometrics. 2003. Pp. 310-330.

5. LeSage J.P. The Theory and Practice of Spatial Econometrics. University of Toledo. 1999. 124 p.

6. Baker S.R., Bloom N., Davis S.J. Measuring Economic Policy Uncertainty // Quarterly Journal of Economics. 2016. Vol. 131(4). Pp. 1593-1636.
7. Rouyendegh B.D., Erol S. Selecting the Best Project Using the Fuzzy ELECTRE Method // Mathematical Problems in Engineering. 2012. Article ID 790142. 12 p.
8. Khudyakova T., Shmidt A. The Impact of Crisis on the Performance Indicator of Russian Enterprises // International Multidisciplinary Scientific Conferences on Social Sciences and Arts. 2018. Pp. 741-748.
9. Zakharov N. Does Corruption Hinder Investment? Evidence from Russian Regions // European Journal of Political Economy. 2019. Vol. 56. Pp. 39-61.
10. Hines J.R., Park J. Investment Ramifications of Distortionary Tax Subsidies // Journal of Public Economics. 2019. Vol. 172. Pp. 36-51.
11. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Toshkent: Iqtisodiyot. 2019. 366 b.
12. Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. Toshkent: Fan va texnologiya. 2007. 612 b.
13. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш. Iqtisodiyot fanlari doktori diss.avtoref. Toshkent: TDIU. 2008. 49 b.
14. Арипов О.А. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик мухитини ривожлантириш. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. 2020. 156 b.
15. Abdurahmonova G.Q. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish omillari // Iqtisodiyot va moliya. 2023. №8. 23-35 b.
16. Qulmatov A.A. Investitsion loyihalarni baholashning zamonaviy usullari // Amaliy ekonometrika. 2022. №11. 12-27 b.
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda. Toshkent. 2024. 400 b. <https://stat.uz>
18. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Namangan. 2024. 250 b.
19. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. MIT Press. 2010. 1096 p.
20. Gujarati D.N. Basic Econometrics. McGraw-Hill. 2009. 944 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**